



JADID MA'RIFATPARVARLARI: MILLIY MEROSI VA SIYOSIY QARASHLARNING UYG'UNLIGI

Qosimova E'tibor G'ayratovna

GulDU Tarix kafedrası dotsenti

Gulchehra Abdulxay,

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15211906>

Annotatsiya. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo jadidchilik harakati jadal rivojlandi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi ma'rifat orqali millatni uyg'otish, isloh qilish va milliy ongni shakllantirish edi. Ammo jadidlar faqat ta'lim va madaniyat bilan cheklanib qolmay, siyosiy islohotlarni ham ilgari surgan. Ular chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turib, Turkiston mustaqilligi, konstitutsion boshqaruv va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surganlar. Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlarining siyosiy qarashlari va ularning milliy meros bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvarlik, Tanzimat, milliy mafkura, gazeta, qurolli harakati, Behbudiy, Cho'lpon, milliy maktablar, matbuot, sho'ro tuzumi, milliy g'oya.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati – bu xalqni jaholat, mustamlakachilik va ijtimoiy qoloqlikdan qutqarishga qaratilgan keng qamrovli ma'rifiy-siyosiy harakat edi. “Jadid” atamasi arabcha “yangi” degan ma'noni anglatib, bu harakat vakillari o'zlarini “usuli jadid” (ya'ni yangi usulda ta'lim berish) tarafdorlari deb e'lon qilganlar. Jadidlar qatorida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi o'z davrining ilg'or ziyolilari faoliyat yuritgan. Ular ilg'or pedagogik g'oyalar, modern milliy tafakkur va o'ziga xos siyosiy qarashlarni ilgari surganlar. Jadidlar an'anaviy maktab va madrasalarning hayotdan ortda qolganligini tanqid qilgan holda, yangi maktablar ochib, zamonaviy fanlar va dunyoviy bilimlarni o'rgatishga harakat qilganlar. Bunday maktablarda tabiiyot, geografiya, tarix, matematika kabi fanlar o'qitilgan, bu esa butun bir avlodning dunyoqarashini o'zgartirgan. Shu bilan birga, ular milliy adabiyot, tarix, til va madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Fitratning “Milliy” risolasi, Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari – bular jadidlarning milliy o'zlikni uyg'otish yo'lidagi sa'y-harakatlariga misol bo'la oladi.

Jadidlar nafaqat ma'rifiy, balki siyosiy sohada ham faol edilar. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakasida bo'lgan Turkiston xalqining siyosiy huquqlarini himoya qilish, madaniy avtonomiya, erkin matbuot, xalq vakilligi asosida

boshqaruv kabi g'oyalarni ilgari surganlar. Xususan, 1917 yilda tashkil topgan "Sho'ro-i Islomiya" va "Turkiston Muxtoriyati" kabi siyosiy harakatlarda jadidlar faol qatnashgan.

Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarining boy milliy merosi, ularning ma'rifiy g'oyalari bilan siyosiy qarashlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilinadi. Bu uyg'unlikni anglash, zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidlar merosining qanday davom etayotganini tushunish uchun muhim ilmiy asos bo'la oladi. Jadidlar siyosiy qarashlarida turli manbalarga asoslanganlar. Ularning dunyoqarashi uch asosiy omil bilan shakllangan:

– Islomiy tafakkur - Jadidlar islomni faqat diniy tizim emas, balki ijtimoiy-siyosiy tuzumni tartibga soluvchi omil sifatida ham ko'rgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy konstitutsiyaviy boshqaruv g'oyasini shariat asoslari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan.

– G'arb va Usmonli tajribasi - Usmonli davlatida amalga oshirilgan Tanzimat islohotlari jadidlar uchun namunaviy model bo'lib xizmat qilgan. Jadidlar Turkiya va Yevropa mamlakatlarining taraqqiy etish sabablari ta'lim va siyosiy islohotlarga bog'liq deb bilishgan.

– Rossiya inqilobiy harakatlari ta'siri - XX asr boshlarida Rossiyada kuchaygan inqilobiy harakatlar jadidlar tafakkuriga ham ta'sir ko'rsatgan[1]. Ular konstitutsiyaviy monarxiya yoki parlament boshqaruviga o'tish g'oyalarini o'rganishgan. Jadidlarning ko'pchiligi Turkiston avtonomiyasini tashkil etish tarafdori edi. 1917-yilgi Fevral inqilobidan so'ng ular Turkiston Muxtoriyatini e'lon qilib, mustaqil davlat qurishga harakat qilishgan. Ammo bu harakat bolsheviklar tomonidan shafqatsiz bostirilgan.

"So'nggi 100 yillikda milliy vijdon uyg'ongan yerlardan endi imperatorlik saqlanib qola olmaydi, mustamlakachilik siyosati davom etmaydi" [1:59]. Ushbu satrlarda olim "milliy vijdon" iborasi orqali milliy ma'naviyat tushunchasini ham ifoda etayapdi. Chunki, ma'naviyat insonning o'z-o'zini yaratish va o'zgartirish faoliyati bo'lsa, uning asosida mavjud bo'lgan madaniyat insonning sifatiy ta'riflanishidir. Avvalo, madaniyat hodisalarida insonning ongi ham, intilishlari ham irodasi ham birlashadi. Va "milliy birdamlik"ni kuchaytirish uchun dastavval milliy madaniyatni yuksaltirish zarur, mohir ziyolilarimiz bu ishni tez bajarishi lozim" – degan ko'rsatma "milliy birdamlik" uchun "madaniy axloq"ning zaruriyligi vajidan yuzaga kelgan edi. Chunki milliy istiqlool uchun kurashayotgan millatparvarlarning qarashlarida "Vatan milliy madaniyatdir" [2: 61-62] degan tushuncha ustuvor edi. O'zining yuksak ma'naviyati va ma'rifati bilan vaqtida ulkan madaniyat yaratgan turkiy xalqlar uchun milliy ma'naviy



qiyofani tiklash, madaniyatni yuksaltirish millatni mustamlaka zanjiridan ozod qilishning zaruriy talabi edi. Zotan faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin" ligini teran anglagan jadidlar millatning ma'naviy qashshoqligidan or etdilar va yozdilar: "Bizni qilaturg'on aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, hatna, bu ikki balo shundog' qattiq bir illatki, o'lmaguncha qutulib bo'lmaydur. Shaharlarda o'rtahol o'tururga xona va bog'i bor kishi nikoh uchun ikki ming so'm va o'g'ul hatnasi uchun hech bo'lmaganda ming so'm sarf etar... oxiri nima bo'lur? Nima bo'lur, deysiz? Ota-bobosidan qolgan mulk va vatanni o'z ixtiyori ila zo'rakiboyini o'zi o'lgandan so'ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabiyga sotib, to'y va ta'ziya qarzini berar " [2: 147]. Jadidlar milliy davlatchilik tushunchasiga katta e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha:

1) Mustaqil yoki muxtoriyatga ega bo'lgan davlat bo'lmasa, milliy madaniyat, til va din erkin rivojlana olmaydi.

2) Ta'lim va ilm-fan taraqqiy etmasa, mustaqil davlatni boshqarish imkonsiz.

3) Turkiston xalqlari birlashmasa, mustamlakachilikdan xalos bo'lish qiyin.

Bu g'oyalar Muhammad Aminxo'ja Vatan, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadidlarning asarlarida ham aks etgan. Ular mustaqil milliy davlat barpo qilish g'oyalarini ilgari surishgan, biroq bu qarashlar chor Rossiyasi va Sovet hokimiyati tomonidan tahdid sifatida qabul qilingan.

Mahmudxo'ja Behbudiy "To'y va ta'ziyaga sarf qilinadurg'on oqchalamizni biz, turoniylar ilm va din yo'lga sarf etsak, qisqa fursatda ovrupeiylardek taraqqiy etarmiz". – deya milliy ma'naviyat va ma'rifat haqida qayg'urushi millatni jaholat botqog'idan qutqazish yo'lidagi urinishlaridan edi [3]. Ming afsuski, millatning milliy xarakteridan chuqur o'rin olgan bu soxta obro'talablik bugunga qadar muammo holida qolib kelmoqda. Yoki xuddi shu yo'nalishda yozilgan Cho'lponning "Turkistonli qardoshlarimizga", Avloniyning "Zamon ahvolidan", "Istiqbolimiz uchun bir jigarso'z" she'rlari, "Yig'la Turiston", "Toru mor etding" she'rlari millatimiz ma'naviyatining tuban ketayotganidan tashvishga tushayotgan millatparvar ijodkorlarning qalb tebranishlari hosilasi edi. Millatni ma'naviy kamolatga yetkazish, Vatanni jahonning ilg'or madaniyatli davlatlari qatorida ko'rish umidi XX asr boshlarida matbuotning keng tarqalishiga, yangi nashrlarga yo'l ochdi.



“Jadidlar o‘zbek milliy demokratik matbuotining vujudga kelishi uchun jonbozlik ko‘rsatdilar. Behbudiylar, Munavvarqori, Obidjon Mahmudov, Ubaydulla Xo‘jaev, Ashurali Zohiriy tirishqoqligi tufayli “Xurshid”, “Turon”, “Samarqand”, “Oyna”, “O‘rta aziyaning umrguzarligi”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Kengash”, “Turk so‘zi”, “Sur‘at” kabi gazeta va jaridalar (to‘plam, almanax) birin-ketin maydonga kelib mustamlakachiliklar qalbiga qutqu, xalqimiz qalbiga istiqloq, erk tuyg‘usini solishga intildi”. Millatning ma‘naviy va ma‘rifiy ko‘zlarini ochish, unga o‘zligini tanitish va milliy istiqloqlarga olib chiqishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan jadidchilik harakati asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy hodisa, to‘g‘rirog‘i, o‘z maslak va qarashlari, matbuoti, o‘qitish va idora usuliga ega bo‘lgan Partiya darajasiga ko‘tarildi. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida idorai mashrutachilik (konstitutsion monarxiya) dan jamhuriyatchilikka bor edi. Jadidlarning siyosiy qarashlari chor Rossiyasi va keyinchalik Sovet davrida qattiq tanqid ostiga olingan. Sovet mafkurasi ularni “millatchi”, “panturkist” va “aksilinqilobiy kuch” sifatida qoraladi. Ayniqsa, 1937-1938-yillardagi qatag‘onlar davrida ko‘plab jadidlar “xalq dushmani” sifatida qatl etildi yoki surgun qilindi. Biroq, haqiqat shundaki, jadidlar nafaqat milliy mustaqillik, balki Turkiston xalqlarining jahon tamaddunida o‘z o‘rnini topishini xohlagan ma‘rifatparvarlardir.

Ammo yuqoridagi fikrlardan “Turkiston xalqlari milliy zulmga butunlay qarshi chiqmadilar va jadidlarning siyosat maydoniga chiqishini kutdilar” – degan xulosaga kelmaslik kerak. Chunki milliy ozodlik kurashining turli bosqichlarida yuz beradigan stixiyali xatti-harakatlar, milliy g‘urur ko‘rinishiga oid ba‘zi ijtimoiy hodisalar millat ruhiyatida ro‘y berayotgan ichki isyondan darak beradi. Lekin bular aksariyati ong va aql bilan bog‘liq bo‘lavermaydi

Shu bois, dastavval millatning siyosiy ongini o‘stirish, uni milliy istiqloqlarga tayyorlash uchun maktabdan boshlangan, so‘ng matbuot, teatr, siyosatga o‘tgan va asosan matbuot kuchiga tayangan jadidlar ijodida “publitsistika shiddat bilan rivojlandi. Birigina Behbudiylarning matbuotda bosilgan maqolalarini mutaxassislar 300 dan ziyod chamalaydilar. Mirmuhsin Shermuhamedov 1914-yilda yuzga yaqin maqola e‘lon qilgan edi!” [4: 22]. Maqolalarda ko‘tarilgan masalalar mavzu jihatdan turli-tuman bo‘lib, ularda millat bolalariga yangicha, dunyoviy ilm-fan berishdan tortib teatr, til, adabiyot, siyosat, huquq va hatto safar-sayohat taassurotlari, ya‘ni boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishtirishgacha bor edi. Bu davrga kelib qanday qilib bo‘lmasin, millat ongini uyg‘otish eng muhim vazifa ekanligi anglangan edi. Zero, eng avval ma‘naviyatda



millat, milliy madaniyat, milliy turmush tarzi uning taraqqiyoti va kelajagi aks etadi. Ayonki, millatning ma'naviy asoslaridan biri uning tilidir.

Chor Rossiyasi barcha mustamlakachi davlatlar singari millatni manqurtlashtirishning eng oson yo'li uni milliy tilidan ayirish – "ruslashtirish" ekanini anglab yotgan va shu siyosatni amalga tadbiq eta boshlagan edi. Bunga qarshi turish uchun millatning milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otish lozim edi.

"Jadidchilik Turkistonda o'ttiz yil nari-berisi davom etdi. ... Biroq shu qisqa davr katta bir xalqning millat sifatida shakllanishiga, ijtimoiy ongi uyg'onib dunyoqarashi o'zgarib, estetik didi kamol topishiga imkon yaratdi" [5: 28]. Ko'rinib turibdiki, bu harakat milliy ma'naviyatini kamol toptirishdan san'at va adabiyotning kuchiga tayangan edi. Chunki, millatning o'zligi anglash jarayonida ilmiy merosning o'rni beqiyosdir. Asrimiz boshlarida O'zbekistonda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarda ham jadidlarimiz ilmiy merosi muhim o'rin tutdi. "Adabiyot hech qachon bu qadar keskin g'oyaviy-siyosiy kurashlar maydoniga aylanmagan edi" – degan, fikr XX asr boshlarida asarlarning tutgan mavqeini aniq ko'rsatib bera oladi. Milliy uyg'onish haraktida adabiyotning yetakchilik qilish hodisasi jahon taraqqiyoti uchun yangilik emas.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xududlarida O'zbekiston SSSR (Turkiston), Buxoro va Xivada, shuningdek ayrim xorijiy Sharq mamalakatlarida junbishga kelgan jadid ma'rifatparvarlig harakati katta qarshiliklarga uchradi. Bugun biz, qariyb 100 yil o'tganidan keyin, Turkistonda M.Behbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati tarixini o'rganganimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san'atiga beqiyos xissa qo'shganliklarini sog'lom fikr bilan o'ylasak, ularning bu faoliyatlarini fidoiyilik va jasorat deb baholash maqsadga muvofiq tarzda bo'ladi. Lekin masalaning ajablanarli tamoni shundaki, bu tarixiy haqiqat uzoq davrlar mobaynida qoralanib kelgnligini guvohi bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Jadidlar chor Rossiyasi davrida ham, sobiq sovet davrida ham qoralanib kelindi. Ular faoliyati bilan bog'liq tarixiy adolatni ulug' ma'rifatparvar ziyoliylarimizni nomlarini tarixning qora ro'yhatidan olib chiqilishiga Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning amaliy tashabuslarini etiborga olish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoning to'rtinchi ustuvor yo'nalishidagi 4.4 bandini amalga oshirishga shuningdek O'zbekiston



Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24-maydagi PQ-2995- son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish tizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi va 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son “Maʼnaviy maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga koʻtarish toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda nazariy-metodologik asos boʻlib xizmat qiladi [6]. Maʼlumki, “jadid” soʻzi yangi, yanglik degan maʼnolarni anglatadi. Dunyo miqyosida yangidan yangi toliq organilmagan maʼlumotlarda aylanma jarayonlar glaballashuv jarayonida yoshlar maʼnaviy-axloqiy qiyofasida taʼsir koʻrsatayotgan salbiy omillarni bartaraf etishda oʻzlikni anglash, maʼnaviy merosni tadqiq etish va xalqqa yetkazish dolzarb ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, jadidchilik harakati Turkistonning mustamlakachilikdan xalos boʻlishi, milliy oʻzlikni anglash va jamiyatni modernizatsiya qilish kabi yuksak maqsadlarni oʻz oldiga qoʻygan edi. Ularning siyosiy qarashlari faqat mustaqillik yoki hokimiyat masalasigina boʻlib qolmay, balki xalqning siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratiya va adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan edi. Bu gʻoyalar jadidlarning siyosiy tafakkurida yaqqol namoyon boʻlgan. Mahmudxoʻja Behbudiy: “Har bir millatning saodati va taraqqiyoti uning siyosiy va huquqiy tafakkuriga bogʻliq”, deb taʼkidlaydi [5].

Fikrimizcha Behbudiy konstitutsiyaviy boshqaruv, erkin matbuot va xalqning siyosiy faolligini muhim deb bilgan. Jadidlar xalqning davlat ishlari va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi kerakligini taʼkidlab, ularni siyosiy savodxonlikka chaqirishgan. Behbudiyning bu fikrlari hozirgi demokratik jamiyat qurish jarayonida ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Munavvarqori Abdurashidxonov esa “Millat taraqqiyoti uchun avvalo mustaqil tafakkur va milliy gʻurur zarur”, deb taʼkidlagan [7]. Unga koʻra, Turkiston xalqlari oʻz taqdirini oʻzlari belgilashi, mustamlakachilikka qarshi siyosiy kurash olib borishi kerak. Bu gʻoya aynan bugungi kunda milliy suverenitet va davlat mustaqilligi tamoyillari bilan chambarchas bogʻliqdir.

Abdurauf Fitrat esa shunday yozadi: “Haqiqatdan yiroqlashgan millat mahv boʻladi” [8]. U xalqning oʻz haq-huquqini bilishi, mustaqil tafakkur qilishga oʻrganishi va boshqaruv tizimida faol boʻlishi kerakligini taʼkidlaydi. Uning bu fikrlari siyosiy madaniyat va fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omillaridan biri boʻlib qolmoqda. Jadidlarning ushbu qarashlari shuni koʻrsatadiki, ularning siyosiy faoliyati milliy manfaatlarni himoya qilish,



mustamlakachilikka qarshi kurashish va Turkiston xalqlarining davlat qurilishi jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan edi. Ular jamiyatni yangilash uchun faqat ta'lim va madaniyat emas, balki siyosiy ong va huquqiy madaniyat ham muhim rol o'ynashini chuqur anglagan edilar.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston jadidlarning siyosiy merosini yangicha yondashuv bilan o'rganishi va ulardan saboq olishi zarur. Ularning ilg'or g'oyalari zamonaviy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va milliy manfaatlarni himoya qilish yo'lida bebaho tajriba bo'lib xizmat qilishi lozim. Shu bois, jadidchilik harakati faqat tarixiy voqelik emas, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun milliy taraqqiyotning kuchli tayanchlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyo Kukalp. "Turkchilik asoslari". Toshkent, 1998.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T., Ma'naviyat, 1997.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev shahidlar xotirasi xiyoboni tashrifidagi suhbatdan Gazeta.uz 31.08.2021).
4. Qosimov B. "Jadidchilik". "Milliy uyg'onish" - T.: Universitet. 1993-yil.
5. Qosimov B. "Izlay, izlay topganim...". - Toshkent, 1997
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchlik ma'lumotlar milliy bazasi Lex.uz sayiti
7. Munavvarqori Abdurashidxonov. "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1907) Tanlangan asarlar. –T., Ma'naviyat, 1999.
8. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" (1923). Tanlangan asarlar. –T., Ma'naviyat, 1997.
9. Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLİYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.
10. Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOİY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.
11. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).
12. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). Проблемы современной науки и образования, (11 (53)), 44-45.
13. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Xx asr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство journali



- asosida). Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 631-634.
14. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. Каталог авторефератов, 1(1), 1-30.
15. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT “THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR”. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(06), 133-138.
16. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(7), 540-545.
17. Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 3(07), 41-43.
18. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. Ilm-fan va ta'lim, (3 (18)).
19. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. Talqin va tadqiqotlar, 2(3 (40)).
20. Ne'matov, R., & Tohirov, U. (2024). AMIR TEMURNING MOVAROUNNAHR VA DUNYO XALQLARIDA TUTGAN O'RNI. Ilm-fan va ta'lim, (7 (22)).

